

# MAVZU: SO'Z YASALISHI

Reja:

1. So'z yasalishi haqida umumiylar ma'lumot.
2. O'zbek tilidagi so'z yasash usullari:
  - 1) affiksatsiya (morphologik) usuli;
  - 2) kompozitsiya (sintaktik) usuli;
  - 3) abbreviatsiya (qisqartma) usuli;
  - 4) semantik (ma'noviy) usuli;
  - 5) fonetik usul;
  - 6) takrorlash usuli.
3. So`zlarning tuzilish jihatdan turlari.

# SAVOL

1. Nima uchun ko`p ilmiy adabiyotlarda ikkita so`z yasash usuligina tan olingan?
2. Qisqartma usulni so`z yasalish usuli sifatida tan olsa bo`ladimi?

# SO'Z YASALISHI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

**So'z yasalishi, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan bo'lmasin yangi leksik ma'noli so'z hosil qilishdir.** Masalan, *ish-chi* (-*chi* qo'shimchasi bilan yasalgan), *gulbeor* (2 yasovchi asosning birikuvidan yasalgan) va boshqalar.

So'z yasalishi tilshunoslikning ayrim bir bo'limi sifatida so'zlarning yasalishini (yasama so'z), yangi leksik birlik hosil qilishning qonun-qoidalarini, vositalarini, so'z yasalishi strukturasini (tarkibini) tekshiradi. **Demak, bu sohaning obyekti yasama so'zdir.**

# O'ZBEK TILIDAGI SO'Z YASASH USULLARI

AFFIKSATSIYA  
USULI


KOMPOZITSIYA  
USULI

ABBREVIATSIYA  
USULI

SEMANTIK  
USUL

TAKRORLASH  
USULI

FONETIK USUL



## AFFIKSATSIYA USULI

So`zga so`z yasovchi affiks qo`shish bilan yangi so`z hosil qilish **affiksatsiya usuli** deyiladi. Masalan, *paxtakor*, *sinfidosh*, *quvonch*, *do`stlik*, *ochiq*, *tirishqoq*, *serjilo*, *ilmiy*, *o`yla*, *kengay*, *shodlan*, *tinchi*, *tasodifan*, *oqilona*, *ko`pincha*, *ertalab* va boshqalar. So`z yasovchi affikslar o`zbek tilida asosan suffiks tarzida qo`llanib, so`z o`zagidan so`ng qo`shilib keladi. Ba`zan bunday affikslar o`zak oldiga prefiks tarzida qo`shilib, yangi ma`nodagi so`z yasashi mumkin. Masalan, *serhosil*, *serunum*, *badavlat*, *ba`mani*, *beminnat*, *beg`araz*, *noo`rin*, *nohaq*, *badfe'l*, *badbashara* va h.k.

O`zbek tilida so`z yasovchi affikslardan tashqari, o`z xususiyatlari bilan affikslarga juda yaqin turadigan *xona*, *noma*, *obod* kabi so`z-affikslar ham mavjud. Bunday so`z-affikslar tilshunoslikda affiksoidlar deb ham yuritiladi: *ishxona*, *mehmonxona*, *oshxona*, *qabulxona*, *tabriknoma*, *Xalqobod*, *Yangiobod*.

# KOMPOZITSIYA USULI

Birdan ortiq mustaqil ma'noli so`z yoki so`z shakllarining qo`shilushi, birikuvi orqali yangi so`z yasash **kompozitsiya usuli** bilan so`z yasash deyiladi. Bu usul bilan qo`shma, ayrim juft so`zlar hosil qilinadi. Masalan, *guldasta*, *gultojixo`roz*, *asalari*, *tomorqa*, *xushfe'l*, *rahmdil*, *olijanob*, *hozirjavob*, *havo rang*, *e'lon qilmoq*, *rad etmoq*, *olib kelmoq*, *olib chiqmoq*, *har gal*, *yonma-yon*, *zo`r-bazo`r*, *ketma-ket* va b.

# ABBREVIATSIYA USULI

Bu usulga ko`ra, bir butun holda qo`llanadigan to`g`ri ma'noli turg`un birikmalarning qismlari har xil yo`l bilan qisqartirilib so`z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo`lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: *BMT* – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, *MDH* – Mustaqil davlatlar hamdo`sstligi, *ATS* – Avtomatik telefon stantsiyasi, *ToshMI* – Toshkent meditsina instituti, *filfak* – filologiya fakulteti, *akademlitsey* – akademik litsey, *peduniversitet* – pedagogika universiteti va b.

## FONETIK USUL

Bu usulga ko`ra, so`zda fonetik o`zgarish yuz berib, yangi so`z hosil qilinadi. Chunonchi, so`z urg`usining o`rnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so`z turkumiga doir so`zlar hosil bo`lishi mumkin: *yózma* (fe'l) - *yozmá* (sifat, *súzma* (fe'l) - *suzmá* (ot), *fízik* (ot) *fizík* (sifat), *akadémik* (ot), *akademík* – (sifat) va b.

## SEMANTIK USUL

Bu usulga binoan, so`z ma'nosida o`zgarish ro`y berib, ma'nosи boshqa-boshqa, shaklan o`xshash yangi so`z hosil bo`ladi: *kun* – sutkaning yorug` qismi, *kun* - quyosh, planeta; *ko`k* – osmon, *ko`k* - havorangga o`xshash rang, *bir* – son, *birga*, *birdan*, *birda* – ravish, *o`g`il* bola (sifat) - *O`g`il* keldi (ot).

# TAKRORLASH USULI

Bunda so‘zlar takrorlanib yangi so‘zlar yasaladi: *paqpaq* (o‘yin), *tur-tur* (turish), *bipbip* (avtobus), *pat-pat* (mototsikl), *xola-xola* (o‘yin), *manman*, *yo ‘l-yo ‘l* (rang), *es-es* (zo‘rg‘a).

Takroriy so‘zlarning hammasi ham yasama emas. Bunda ham yangi ma'no yasalsagina, yasama so‘z hisoblanadi: *tez-tez*, *katta-katta* kabi takroriy so‘zlar yasama emas, bunda ma'no kuchaytirilgan, xolos.

## SO`ZLARNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI

- 1. **Sodda so'zlar.** Sodda so'zlar ikki xil bo'ladi: **tub so'z, yasama so'z.** Tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha bo'limgan sodda so'zlar tub so'z deyiladi: *kitoblar, ko'proq, pishdi, yaxshiroq*. So'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan yasalgan sodda so'zlar yasama so'z deyiladi: *uzumzor, guldon, oqla*. Yasama so'z o'zak va yasovchidan iborat bo'ladi: *bil+im, suv+chi*.
- 2. **Qo'shma so'zlar:** *tomorqa, asalari, kamgap, sotib olmoq.*
- 3. **Qisqartma so'zlarning barchasi yasamadir:** *BMT, O'zMU, TDPU, pedkengash.*
-

# SO`ZLARNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI

4. **Juft so'zlar:** Ma'no jihatidan bir-biriga mos kelib, jamlik, umumiylikma'nosini bildirgan so'z **juft so'z** deyiladi. Juft so'zlar qismlari ma'no bildirish-bildirmasligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) har ikki qismi ham yakka holda mustaqil ma'no bildirishi mumkin: *qozon-tovoq, arpa-bug'doy, katta-kichik, bir-ikki, siz-biz, unga-bunga, asta-sekin*; 2) ikkinchi qismi yakka qo'llanmaydigan so'z bo'lishi mumkin: *kiyim-kechak, yosh-yalang, temir-tersak*; 3) birinchi qismi mustahil ma'no bildirmasligi mumkin: *qo'ni-qo'shni, to's-to'polon*; 4) har ikkala qismi ham ma'no ifodalamasligi mumkin: *ikir-chikir, halanhi-hasansi, moyintar-soyintar, uvali-juvali, apil-tapil*. Juft so'zlar qismlari ma'no jihatdan bir necha xil bo'ladi: 1) bir turdag'i yaqin predmetlarning nomlari: *qosh-qovoq, oltin-kumush, qovun-tarvuz*; 2) sinonim so'zlar: *kuch-quvvat, asta-sekin, keksa-qari*; 3) butun va bo'lak nomlari: *oy-kun, vaqt-soat, tog'-tosh*; 4) antonim so'zlar: *kecha-kunduz, yaxshi-yomon, katta-kichik*. Juft so'zlarning yasalishiga ko'ra turlari: **tub juft so'zlar: sabzi-piyoz, katta-kichik, o'ynab-kulib; yasama juft so'zlar: omon-eson, kecha-kunduz, bordi-keldi, kuydi-pishdi.**
-

## SO`ZLARNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI

5. **Birikmali so'zlar**. Bitta so'roqqa javob bo'ladigan, lekin tarkibidagi so'zlarning ma'no mustaqilligi uncha yo'qolmagan so'zlar **birikmali sozlar** deb ataladi. Bunday so'zlar ko'proq **sifat** turkumida uchraydi: *oily ma'lumotli* (yigit), *sochi uzun* (qiz), *yumshoq fe'l* (odam).

## SO`ZLARNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI

- **6. Takroriy so'zlar:** Bir so'zning qo'shaloq kelishidan hosil bo'lgan so'zlar **takroriy so'z** deyiladi: *baland-baland, qator-qator, non-pon, choy-poy, don-dun, irim-chirim*. Takroriy so'zlar ko'plik, davomiylik, takror kabi ma'nolarni bildiradi: *etak-etak gul, ayta-ayta charchadim*. Takroriy so'zlarda ayni bir so'zning takror holda qo'llanishi natijasida grammatik ma'no ifodalanadi. Ma'noni kuchaytirish uchun ketma-ket keltiriladigan so'zlar takroriy so'zlar hisoblanmaydi: *Havoni qara, havoni!*
- Takroriy so'zlar ham yasalishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:  
**tub takroriy so'zlar:** *katta-katta, ikkita-ikkita, o'ynab-o'ynab, yura-yura;* **yasama takroriy so'zlar:** *yor-yor, yashik-yashik, qator-qator, bilinar-bilinmas, marjon-marjon, shu-shu, o'sha-o'sha, es-es, bora-bora (yo'qoldi), qayta-qayta (so'radi).*

## UYGA VAZIFA

1. Ma'ruzani o`qib kelish.
2. Mavzuga tegishli mashqlarni ishslash.
3. Mavzuga tegishli LTQlarni to`ldirish.